

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI**

**HOTAMOV HOMID SULAYMONOVICH**

**OLY MAJLIS SENATINING IJRO HOKIMIYATI FAOLIYATI USTIDAN  
PARLAMENT NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской диссертации**  
**Contents of the Doctoral (PhD) Dissertation**

**Hotamov Homid Sulaymonovich**

Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish..... 3

**Хотамов Хомид Сулаймонович**

Совершенствование правовых основ осуществления Сенатом Олий Мажлиса парламентского контроля за деятельностью исполнительной власти..... 23

**Hotamov Homid Sulaymonovich**

Improvement of the legal basis of parliamentary control over the activities of the executive power of the Senate of the Oliy Majlis..... 43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published work ..... 47

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI**

**HOTAMOV HOMID SULAYMONOVICH**

**OLY MAJLIS SENATINING IJRO HOKIMIYATI FAOLIYATI USTIDAN  
PARLAMENT NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1142 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz) O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sayti ([www.mgixu.uz](http://www.mgixu.uz)) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)) joylashtirilgan.


<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Zulfiqarov Sherzod Xurramovich</b> yuridik fanlar doktori, professor.
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Turgunov Oybek Karimovich</b> yuridik fanlar doktori, professor <b>Asadov Shavkat G'aybullayevich</b> yuridik fanlar doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Toshkent davlat yuridik universiteti</b>


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 19-noyabr soat 15:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo'rg'oni. Tel.: (99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-82; [info@mgixu.uz](mailto:info@mgixu.uz)).


Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~2979~~ -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo'rg'oni. Tel.: (99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-82).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «5» noyabrda tarqatildi.  
(2024 yil «5» noyabrdagi 8 -raqamli reyestr bayonnomasi).



  
**M.X. Rustambayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

  
**J.D. Axmedov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

  
**M.B. Usmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,  
yuridik fanlar doktori, professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda parlament nazorati institutini kuchaytirish, ijro hokimiyati faoliyati ustidan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda samarali parlament nazoratini ta'minlash, shu jumladan, hukumat faoliyati ustidan shaffof va raqamli texnologiyalarga asoslangan parlament nazoratini ta'minlash masalasi dolzarb hisoblanmoqda. Samarali parlament nazorati va uni shaffof tarzda tashkil qilish masalalari xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatni demokratlashtirishning muhim sharti ekanligi ta'kidlanmoqda. 2018-yil 22-mayda BMT Bosh Assambleyasining "Milliy parlamentlar va parlamentlararo ittifoq" o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi 72/278-son rezolutsiyasida "milliy rejalar va strategiyalarni amalga oshirish, shuningdek, milliy va global miqyosda hukumat tomonidan shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash bo'yicha milliy parlamentlarning roli alohida e'tirof etilgan"<sup>1</sup>. Xorijiy mamlakatlardan Buyuk Britaniya parlamenti vakolatlariga hukumat siyosati turli yo'nalishlarining samaradorligi va iqtisodiy asoslanganligini aniqlash maqsadida Bosh nazoratchi va auditorning ma'ruzalarini ko'rib chiqish, davlat xizmatchilari orasida korrupsiya holatlarini aniqlash, hukumat idoralari sarflarining to'g'riligi va zarurligi ustidan nazorat qilish kabi masalalar kiradi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada hukumat parlament quyi palatasi deputatlarining mutlaq ko'pchiligi ishonchiga ega bo'lgandagina faoliyat ko'rsatishi mumkin. Germaniya Konstitutsiyasining 67-moddasiga muvofiq Kansler o'z faoliyati uchun Bundestag oldida siyosiy javobgardir. Ushbu holatlar parlamentning shaffof va ochiqlik prinsiplariga asoslangan nazorat funksiyalarini ta'minlash, parlament nazoratining zamonaviy uslublarini samarali qo'llash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishning dolzarb ekanligini anglatadi.

Jahonda parlamentning ijro hokimiyati faoliyati ustidan nazorati samardorligini oshirish, parlament a'zolarining parlament nazorati sohasidagi huquqlari va majburiyatlarini aniqlash, parlamentarizmning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, hukumatni qonunlar ijrosi va uni samarali tashkil qilish bo'yicha parlament oldidagi javobgarligi, ushbu sohaga raqamli texnologiyalarni joriy qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Jumladan, parlament nazoratining nazariy-huquqiy asoslari va parlament tomonidan budget nazoratini amalga oshirishga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu davlat budjeti xarajatlarining to'g'ri amalga oshirilishi uchun dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda parlamentning yuqori palatasi sifatida Oliy Majlis Senati faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirish, "elektron parlament" doirasida senatorlarni hududlardagi fuqarolar bilan bog'lash, ular bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borish, saylovchilarni qiynayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etish jarayonini raqamlashtirish, parlament nazoratini amalga oshirishda

---

<sup>1</sup> 2018 йил 22 майда БМТ Бош Ассамблеясининг Бирлашган Миллатлар ташкилоти миллий парламентлар ва парламентлараро иттифок ўртасидаги ҳамкорлик тўғрисидаги 72/278-сон резолюцияси // URL: <https://www.un.org>

shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash sohalarida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy Majlis Senatining davlat hokimiyati tizimidagi o'rnini mustahkamlash, ijro hokimiyati faoliyati ustidan nazorat qilish sohasidagi vakolatlarini kengaytirish ustuvor vazifa etib belgilangan bo'lib, ushbu sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirish hamda ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023), "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to'g'risida"gi (2002) Konstitutsiyaviy qonun, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi qonun (2003), "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi (2004), "Parlament nazorati to'g'risida"gi (2016) qonunlar shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-sonli Farmoni va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosiga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimiz olimlari tomonidan parlamentning nazorat faoliyati va uni takomillashtirishning nazariy-huquqiy asoslariga oid masalalar A.X.Saidov, O.T.Xusanov, O.Muxamedjanov, X.Turdiyev, S.O'razboyev, A.Raximov, H.Odilqoriyev, E.Xalilov, O.K.Turg'unov, Sh.Zulfiqorov, I.R.Bekovlar va parlament nazoratining umumiy tavsifi va uning huquqiy asoslari masalasi R.R.Xakimov, M.Mirakulovlarning ilmiy asarlarida o'rganilgan. Shuningdek, parlament tomonidan budjet nazoratini amalga oshirish shakl va usullari I.T.Tulteyev, Sh.U.Yakubov, X.S.Xayitov, S.Yusupovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan parlament nazoratining nazariy-huquqiy asoslari va parlament tomonidan budjet nazoratini amalga oshirishga oid ilmiy tadqiqotlar S.A.Avakyan, A.C.Avtonomov, A.D.Kerimov, Ye.V.Kovryakov, A.Bogdandy, H.Papier, C.Pinelli, W.Steffani, H.W.Zeh, L.V.Akopov, A.A.Bezuglov, I.M.Stepanov, B.A.Strashun, M.M.Utyashev, Fisher L., Cox A., P.Currie David, Tensey S.D., Jackson N., Goldeband E, Seloc B., N.D. Pogosyan, M.Yu. Mixeyeva va D.N.Usatovlarning ilmiy asarlarida bayon etilgan<sup>1</sup>.

Xususan, o'rganilayotgan mavzu doirasida E.X.Xalilovning O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi organi soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar, O.Z.Muxamedjanovning O'zbekistonda ikki palatali parlament faoliyatining

---

<sup>1</sup> Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

tashkiliy-huquqiy asoslari, R.R.Xakimovning davlat hokimiyati tizimida parlament nazariya va amaliyot muammolari mavzularida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy olimlardan Kaare Strom, Wolfgang C., Muller va Daniel Markham Smith tomonidan “Parliamentary control of Coalition Governments” mavzusida ilmiy tadqiqot ishi amalga oshirilib, unda ijro hokimiyati faoliyati ustidan samarali, shaffof va raqamli texnologiyalarga asoslangan parlament nazoratini ta’minlash masalalari o’rganilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga oid masalalar tahlil etilgan bo’lsa-da, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan parlament nazorati, uning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari, parlament nazoratini tashkil qilishning innovatsion metodlari va sohani raqamlashtirish, xorijiy mamlakatlar parlamentlarining mazkur sohadagi huquqni qo’llash amaliyoti mamlakatimizda mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o’rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi.** Dissertatsiya mavzusi O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2022–2027-yillarda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishni istiqbolli rejasining 2.11-bandiga muvofiq “Davlat boshqaruvi sohasida demokratik institutlarning rolini yanada oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish, huquqiy davlat mexanizmlarini modernizatsiyalash borasida nazariy bilim va ko’nikmalarni rivojlantirish” mavzusidagi ustuvor yo’nalish doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

hokimiyat tarmoqlari o’rtasida “bir-birini tiyib, muvozanatda ushlab turish” mexanizmida parlament nazoratining o’rniga ilmiy doktrinal baho berish;

parlament nazorati tushunchasi va uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, parlament nazoratining shakllari va bosqichlari haqida ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish;

Oliy Majlis Senatining parlament nazorati sohasidagi vazifa va funksiyalarining umumiy tavsifini o’rganish;

Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning normativ-huquqiy asoslarini o’rganish;

O’zbekiston Respublikasida davlat dasturlari hamda strategiyalarni amalga oshirishda Oliy Majlis Senatining nazorat funksiyasi va uning shakllariga huquqiy baho berish;

parlament tekshiruvi va uni tashkil qilishda Oliy Majlis Senatining o’rni va rolini mustahkamlash;

xorijiy davlatlarda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

Senatning nazorat faoliyati ta'sirchanligini oshirishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning huquqiy asoslarini joriy qilish;

Oliy Majlis Senatining parlament nazorati funksiyasini amalga oshirish mexanizmlari va samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini tashkil qilish bilan bog'liq munosabatlar, huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalarning mohiyatini tadqiq etish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy bilishning tizimlilik, funksional tahlil, kompleks yondashuv, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, induktiv va deduktiv tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari doirasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosi ustidan nazorat qilishni kiritish zarurligi asoslangan;

Oliy Majlis Senati tomonidan amaldagi qonunlarda mavjud bo'lgan huquqiy bo'shliqlar va nomuvofiqliklarni bartaraf qilish uchun qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishi zarurligi asoslangan;

Senat qo'mitalari huzurida tuzilgan ekspert guruhlarining qonunlarni muhokama qilish, nazorat-tahlil tadbirlarini tayyorlash va o'tkazishga oid faoliyatining zarurligi, qo'mitalarning qarorlari majlisda ishtirok etayotgan Ekspert guruhi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi asoslantirilgan;

Oliy Majlis Senati tomonidan hududiy davlat organlari faoliyati ustidan amaldagi qonunlarga rioya etilishi yuzasidan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari orqali nazorat qilish mexanizmi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunchilik hujjatlarini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyat organlari, ularning mansabdor shaxslari tomonidan ijro etilish holatini o'rganish, joylardagi mavjud muammolarni aniqlash, ijro hokimiyati faoliyati samaradorligini oshirish, huquqiy ta'sir vositalarini amalga oshirishga qaratilgan nazorat tadbirlarining majmui parlament nazorati tushunchasini tashkil qilishi asoslantirib berilgan;

Davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senati va uning organlari qarorlarini, davlat dasturlarini ijro etish, shuningdek o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha faoliyati yuzasidan parlament nazoratini o'rnatishga oid qaror qabul qilishning ilmiy-nazariy masalalari asoslantirib berilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish yakunlari bo'yicha ularning faoliyati samaradorligini baholash, qoniqarli yoki qoniqarsiz deb topish, qo'shimcha muddat berish yoxud lavozimidan ozod qilish to'g'risida takliflar kiritish lozimligi nazariy-huquqiy jihatdan asoslantirilgan;

parlament o'z faoliyatining xususiyati va yakunlari to'g'risidagi umumlashtirilgan axborotnoma, qonun loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilish bo'yicha jamoatchilik fikri ko'rsatkichlari, senatorlar faoliyatining jamoatchilik tomonidan baholanishi singari uslublarni joriy qilish zarurligi asoslab berilgan;

Oliy Majlis Senati veb-saytiga real vaqt rejimida ko'proq ma'lumotlarni onlayn joylashtirish, jamoatchilikka senatorlarga savollar berish imkoniyatini berish orqali tajriba o'tkazish, qonun ijodkorligi jarayonida uning barcha bosqichlarida raqamli vositalar orqali ishtirok etish zarurligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar rasmiy manbalardan olinganligi bilan, amaliy natijalarining ishonchliligi rasmiy statistik manbalardan foydalanilganligi bilan hamda xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilinganligi bilan, shuningdek olingan natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, Senat faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda "Konstitutsiyaviy huquq" va "Parlament huquqi", "Konstitutsiyaviy huquq fanining dolzarb ilmiy-amaliy muammolari" fanlarini o'qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga, shuningdek, Oliy Majlis Senatining rolini hamda Senat a'zolarining mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda foydalanilgan:

Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari doirasiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish zarurligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-yanvardagi O‘RQ-666-sonli Qonunining 5-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2023-yil 24-avgustdagi 58-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi Oliy Majlis Senatining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha tasdiqlangan hududiy dasturlarda belgilangan vazifalar uchun zarur mablag‘larning davlat budjetida ko‘zda tutilishini ta’minlashga xizmat qilgan;

parlament so‘roviga, senator so‘roviga javob o‘z nomiga so‘rov yuborilgan mansabdor shaxs yoki uning vazifalarini vaqtincha bajarayotgan shaxs tomonidan imzolanishi zarurligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-avgustdagi O‘RQ-631-sonli Qonunining 1-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2023-yil 24-avgustdagi 58-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi parlament nazorati tadbirlari samaradorligini yanada oshirib, parlament so‘rovi, senator so‘rovining to‘liq va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishiga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining davlat organlari rahbarlari axborotini eshitish yakunlari bo‘yicha qarorining tegishli davlat organi tomonidan ijro etish va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-avgustdagi O‘RQ-631-sonli Qonuni 4-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2023-yil 24-avgustdagi 58-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi parlament nazorati tadbirlarining samaradorligi, xususan, davlat organlari rahbarlari axborotini eshitishning sifati oshishiga olib kelgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan kundan e’tiboran besh kun ichida tegishli xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga ijro etish uchun yuborilishi zarurligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-yanvardagi O‘RQ-666-sonli Qonunining 6-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2023-yil 24-avgustdagi 58-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi mahalliy Kengashlar tomonidan qarorlarni qabul qilishda Konstitutsiya va amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilishni ta’minlashga xizmat qilgan;

Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni nazarda tutuvchi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflardan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining 8-moddasi yigirmanchi bandidi (Senat va Qonunchilik palatasining birgalikdagi vakolatlariga parlament tekshiruvini o‘tkazish, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni

amalga oshirish kiradi), 13-moddasini (Senatning mutlaq vakolatlariga respublika monopoliyaga qarshi organining rahbarini saylash, davlat organlarining mansabdor shaxslariga parlament so'rovini yuborish va parlament nazoratining boshqa shakllarini amalga oshirish kiradi) takomillashtirishda foydalanilgan. Ushbu qo'shimcha va o'zgartirishlar Senatning ijro hokimiyati faoliyati ustidan ta'sirchan parlament nazoratini o'rnatishiga xizmat qilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to‘g‘risida”gi va “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari moddalaridagi “davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari” degan so‘zlarni “davlat hokimiyati organlari, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari” degan so‘zlar bilan almashtirishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 10-iyuldagi 3/08-116-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi Senat faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonunlarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirishga, qonunlarning aniq va bir xilda qo'llanilishiga xizmat qilgan;

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, ilmiy jurnallarda 8 ta (3 ta xorijiy nashrlarda) va to'plamlar tapkibida 3 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Hokimiyatlar bo‘linishi sharoitida parlament nazorati: nazariy-huquqiy tahlil”** deb nomlanib, unda hokimiyat tarmoqlari o'rtasida “bir-birini tiyib, muvozanatda ushlab turish” mexanizmida

parlament nazoratining o'рни, parlament nazorati tushunchasi va uning konstitutsiyaviy-huquqiy tahlili, parlament nazoratining shakllari va bosqichlari haqida ilmiy-nazariy qarashlar tahlili, Oliy Majlis Senatining parlament nazorati sohasidagi vazifa va funksiyalarining umumiy tavsifi tadqiq qilingan.

Dissertatsiyada "hokimiyatlar bo'linish prinsipi" tushunchasi, uning mohiyati, ushbu tushunchani anglash bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish orqali, parlament nazoratini ushbu muvozanatni saqlashdagi o'рни ochib berilgan.

Yuridik adabiyotlarda huquqshunos olimlar va tadqiqotchilar (H.Odilqoriyev, Z.M.Islomov, R.Xakimov, A.Raximov, Djon Lokk, Sharl Lui Monteske, K.Ayxenberger, A.Vanderbilt, J.Shevale, A.Esmen) tomonidan "hokimiyatlar bo'linish prinsipi" tushunchasi, uning mohiyati, ushbu tushunchani tushunish bilan bog'liq doktrinal qarashlar, parlament nazoratini ushbu prinsipni samarali ta'minlashdagi o'rniga oid qarashlar keltirib o'tilgan.

Tadqiqotchi hokimiyatning bo'linishi konsepsiyasidan parlament nazorati zarurligining mantiqiy asoslari – qonun chiqaruvchi hokimiyatning davlat hokimiyati organlarining faoliyati ustidan o'rnatadigan siyosiy nazoratidan kelib chiqadi, deb hisoblaydi.

Dissertant parlamentning nazorat vakolatlari mohiyati va huquqiy mohiyatini aniqlashning boshlang'ich nuqtasi har doim hokimiyatlarning bo'linishi nazariyasi mantig'idir, parlament vakolatining qadri va ahamiyati nafaqat qonunlarni sifatli qabul qilish, balki qabul qilingan qonunlarning samarali ijrosini har tomonlama ta'minlashdadir, degan g'oyani ilgari suradi.

Tadqiqotchi hukumat va qonun chiqaruvchi hokimiyatning o'zaro ta'siri parlamentning ijro hokimiyati ustidan nazoratini ta'minlovchi o'zaro tiyib turish va muvozanat mexanizmining tarkibiy va funksional elementi bo'lib xizmat qilishini asoslab bergan. Parlament va hukumatning o'zaro hamkorligi nazariyasida markaziy o'rinni ularning hamkorligi, birgalikdagi faoliyati, har bir funksiyasini amalga oshirishda sa'y-harakatlarini birlashtirish g'oyasi yotadi.

Ushbu g'oya o'zaro tiyib turish tizimining instrumental komponenti sifatida qaraladi, bu hokimiyatning mutlaqlashuvi va uni suiiste'mol qilishning oldini olish uchun hokimiyat vakolatining ma'lum bir cheklanishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyada olimlarning (A.Saidov, N.Ismoilov, E.Xalilov, R.Xakimov, Sh.Fayziyev, M.Mirakulov, G.Ellinek, V.Steffa, V.G.Afanasev, M.Lesaj) parlament nazorati tushunchasi va uning xususiyatlariga bergan doktrinal yondashuvlari tahlilini o'tkazgan holda parlament nazorati funksiyasining ahamiyati birinchidan, qabul qilingan qonunlarning samarali darajada ijro etilishini o'rganish, ikkinchidan, qonunlarning amaliyotda qo'llanilishiga salbiy ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash, uchinchidan, mavjud va yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va belgilash ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Oliy Majlis Senatining parlament nazorati funksiyasi uning xalq manfaatlarini ifodalovchi organ sifatidagi vakillik xususiyati bilan belgilanadi. Parlament vakillik hokimiyati organi sifatida nafaqat qonunlar ijrosi ustidan nazorat

qilish, balki huquq va erkinliklarning buzilishi bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishga ham majburdir, degan qarashni asoslab bergan.

Dissertatsiyada parlament nazorati huquqiy shaklda amalga oshirilsa ham, asosan siyosiy xarakterga ega ekanligi ko'rsatilib, parlament nazorati davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishini aniqlash va oldini olishga qaratilishi zarur, degan fikr ilgari surilgan.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlari va qonunlariga asosan O'zbekistonda parlament nazoratining asosiy shakllari tasniflanib, uning turlariga alohida-alohida huquqiy baho berilgan.

Parlament nazoratini tasniflashning mezonlari qatoriga parlament nazoratini amalga oshiruvchi organlar, uni amalga oshirishning vaqti, parlament nazoratining mazmuni va jarayoni kabilarni kiritish mumkin. Parlament faoliyatida qonun ijodkorligi va nazorat funksiyalarining uyg'un holda qo'shib olib borilishi o'z mantig'iga ega. Zero, parlament qonunlarning ijrosi ustidan nazorat olib borish orqali hayotni, amaliyotni kuzatib boradi.

Dissertant ikki palatali parlament amaliyoti mavjud xalqaro tajriba asosida yuqori palataning parlament nazorati sohasida uchta asosiy modeli mavjudligini ko'rsatib o'tgan: cheklovchi yoki konservativ model; hukumatning federal xususiyatini ta'minlash modeli; muvofiqlashtiruvchi rolga asoslangan model.

Tadqiqotchining fikricha, Oliy Majlis Senatining parlament nazorati sohasidagi vazifa va funksiyalari qonunlar ijrosi ustidan o'rnatilganligi bu bevosita qonunlarning ta'sirchanligini oshirish bilan bir qatorda, fuqarolarning qonunlarga rioya etish va uni bajarishida hamda qonunga hurmat darajasining ham ortishiga olib keladi. Bundan tashqari davlat organlari tomonidan qonunlar ijrosini ta'minlashda ularning ham o'z vazifalariga og'ishmasdan rioya qilishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazorati funksiyasini amalga oshirishining tashkiliy-huquqiy asoslari**" deb nomlanib, u Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning normativ-huquqiy asoslari, O'zbekiston Respublikasida davlat dasturlari hamda strategiyalarni amalga oshirishda Oliy Majlis Senatining nazorat funksiyasi va uning shakllari, parlament tekshiruvi va uni tashkil qilishda Oliy Majlis Senatining o'rni kabi masalalar tahliliga bag'ishlangan.

Dissertatsiyada Oliy Majlisning parlament nazorati sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning tarixiy shart-sharoitlari o'rganilgan va Senatning parlament nazorati sohasidagi faoliyatining tarixiy rivojlanishini quyidagi bosqichlarga bo'lish taklif qilingan:

Birinchi bosqich – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining beshinchi bo'limi XVIII – XX, XXIII boblariga kiritilayotgan o'zgartirishlar bilan hamda O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamentini saylash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yilga uzaytirish to'g'risidagi masalalar yuzasidan 2002-yil 27-yanvar kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumining qarorlari bilan bog'liq.

Ikkinchi bosqich – 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)”gi O‘RQ-284-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan bog‘liqdir.

Uchinchi bosqich – Harakatlar strategiyasi va uni amalga oshirish davrini, ya’ni, 2017 – 2022-yillarni qamrab oladi.

To‘rtinchi bosqich – 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumi, referendumda qabul qilingan Konstitutsiya va referendumdan keyingi davrni qamrab oladi. Yangi Konstitutsiya normalarida asosiy e’tibor Oliy Majlis palatalarining hukumat faoliyati ustidan, umuman parlament nazorati funksiyalari va ularni amalga oshirish shakllarini aniq belgilash, umuman olganda tarozi pallasini muvozanatda saqlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Dissertant parlamentarizmning barcha asosiy prinsiplari orasida, eng muhim ikkitasini alohida ta’kidlash kerakligini qayd etgan, bular hukumatni parlament irodasiga muvofiq shakllantirish prinsipi va hukumatning parlament oldidagi siyosiy javobgarligi prinsipi.

Tadqiqotda O‘zbekistonda Oliy Majlis Senatining parlament nazorati muhim shakllari bir necha guruhlariga ajratilgan holda tahlil qilingan bo‘lib, ular orasida Prezident farmonlarining tasdiqlanishi (Konstitutsiyaning 95-moddasi, 6-bandi) hamda yuqori darajadagi mansabdor shaxslarni lavozimga saylash yoki tayinlash (tasdiqlash) va ushbu organ va mansabdor shaxslarning hisobotini eshitish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Oliy Majlis Senati majlislarida O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi har yilgi milliy ma’ruzani eshitish parlament nazorati shakli sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-noyabrdagi O‘RQ-729-sonli Qonuniga asosan kiritilgan bo‘lib, unda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan mamlakatimizda ijro hokimiyati organlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan korrupsiyaviy holatlar, mavjud vaziyat tahlil qilinganligi bois, ushbu parlament nazorati shakli bevosita ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Dissertant “Oliy Majlis Senati Reglamenti to‘g‘risida”gi va “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi qonunlarda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining qarorlarini, ular qonunchilik normalariga muvofiq bo‘lmagan taqdirda, bekor qilish parlament nazorati shaklini amalga oshirishning tartib-taomillari va mexanizmlari yetarlicha ochib berilmaganligini ko‘rsatib o‘tgan. Jumladan, qarorning kuchga kirishi va uning huquqiy oqibatlarini, viloyat, tuman, shahar Kengashida ijro etish majburiyati qaysi davlat organi yoki mansabdor shaxs zimmasiga yuklatilishi masalasi ochiq qolgan.

Bizningcha, Oliy Majlis Senati nafaqat xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari qarorini bekor qilish, balki viloyat, tuman, shahar hokimlarini lavozimdan ozod qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taklif kiritish huquqiga

ham ega bo'lishi zarur. Shunda, Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratining ta'sirchanligi yanada yuqori bo'lgan bo'lardi.

Senat davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlarning, turli sohalaridagi davlat dasturlarining ijrosi masalalari hamda ularning vakolatlariga kiradigan boshqa muhim masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon etish talabi bilan parlament so'rovi yuborishga haqli.

2022-yilda Senat qo'mitalari tomonidan 100 dan ortiq nazorat-tahlil tadbiri (o'rganish, monitoring, eshituv, so'rov va h.k.) o'tkazilgan. Yalpi majlislarda 27 marotaba Hukumat a'zolari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda hududlar rahbarlarining axborotlari eshutilgan. Vazirlar Mahkamasiga 5 ta parlament so'rovi yuborilib, o'tgan yil davomida yuborilgan 11 ta parlament so'rovining natijalari muhokama etilgan.

2023-yilda Senatning 12 ta yalpi majlisi o'tkazilib, ularda davlat va jamiyat hayotining turli sohalariga doir 130 dan ortiq masala ko'rib chiqilgan. Senat qo'mitalari tomonidan 90 dan ortiq nazorat-tahlil tadbiri (o'rganish, monitoring, eshituv, so'rov va h.k.) o'tkazilgan. Xususan, qonunlarning hududlar va tegishli sohalaridagi ijrosi hamda aholini qiynayotgan dolzarb masalalar yuzasidan 80 ga yaqin o'rganish o'tkazilgan. Yalpi majlislarda vazirlik, idoralar faoliyati yuzasidan 4 ta eshituv o'tkazilgan. Vazirlar Mahkamasiga 7 ta parlament so'rovi yuborilgan.

Misol uchun, gaz ballonlari bilan jihozlangan avtotransport vositalarining xavfsizligini ta'minlash holati va sohaga oid qonun hujjatlarining ijro etilishi yuzasidan yuborilgan parlament so'rovi natijasida respublikadagi 196 ta avtomobilga gaz to'ldirish kompressor shoxobchasida aniqlangan 1300 ta kamchilikning 815 tasi bartaraf qilingan, 70 ta shoxobchanning faoliyati vaqtincha to'xtatilgan.

Shuningdek, daryolar o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarini mustahkamlash, noruda foydali qazilmalarni qazib olishning atrof muhit, suv va yo'l xo'jaligi obyektlariga salbiy ta'siri yuzasidan yuborilgan so'rov natijasida noruda materiallarini noqonuniy qazib olishda tabiiy obyektlarga yetkazilgan zararni hisoblash tartibining ishlab chiqilishiga erishildi (Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-noyabrda 666-sonli qarori).

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida senator so'rovi instituti va uni amalga oshirish tartibi eng muhim ushbu sohadagi parlament nazorat shakli ekanligi asoslab berilgan.

Senator so'rovi natijasini ko'rib chiqishning ikki tartibi mavjud.

Birinchisi – qo'mita doirasida muhokama qilish. Jumladan, senator so'roviga berilgan javob uni yuborgan mansabdor shaxs ishtirokida Senatning tegishli qo'mitasi majlisida ko'rib chiqilishi mumkin. Senator so'roviga berilgan javobni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Senat qo'mitasi qaror qabul qiladi. Senat qo'mitasining qarori senator so'roviga javob bergan mansabdor shaxsga yuboriladi.

Ikkinchisi – Oliy Majlis Senati majlisida muhokama qilish. Xususan, agar senator so'roviga berilgan javobda keltirilgan axborot so'rovda nazarda tutilgan barcha masalalarni qamrab olmasa, Senat qo'mitasi Senat majlisi muhokamasiga

senatorning so‘rovi bo‘yicha axborotni kiritish to‘g‘risidagi taklifni Senat Kengashiga kiritishi mumkin. Taklif Senat Kengashida ma‘qullansa, masala Senat majlisida ko‘rib chiqiladi.

2015 – 2023-yillarda Senat qo‘mitalarida qonunlar, davlat va hududiy dasturlar ijrosi yuzasidan tashqi savdo, madaniyat, tadbirkorlik, raqobat, investitsiyalar, veterinariya, turizm hamda energetika kabi sohalarga mas‘ul 30 ga yaqin davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining axborotlari eshitilgan<sup>1</sup>.

Dissertatsiyada parlament nazoratining asosiy shakli sanalgan parlament tekshiruvini eng istiqbolli yo‘nalish ekanligi xalqaro tajriba asosida asoslab berilgan. Muvaffaqiyatli o‘tkazilgan parlament tekshiruvini natijasida davlat organlari mansabdor shaxslarining siyosiy javobgarligi, tegishli qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Bunday sanksiyalarning mavjudligi parlament tekshiruvini parlament nazoratining boshqa shakllaridan sezilarli darajada ajratib turadi, chunki ular orqali parlament o‘zining nazorat funksiyasini to‘liq bajarishi mumkin.

Mazkur parlament nazorati shaklini to‘liq amalga oshirish mexanizmini tartibga solishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining “Parlament tekshiruvini to‘g‘risida”gi qonunini qabul qilish zarurligi asoslab berilgan.

O‘zbekistonning 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyasida parlament tekshiruvini institutining huquqiy tabiati aniq ko‘rsatilmaganligi sababli, ushbu qonun bilan parlament tekshiruvining predmeti korrupsiya, budjetni sarflashni amalga oshirish, ijro organlari va ularning rahbarlari faoliyatining qonuniyligi bo‘lishi zarurligi taklif qilingan. Shuningdek, Prezidentning faoliyati, tergov organlarining faoliyati hamda ular tomonidan jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq olib boriladigan dastlabki tergov faoliyati parlament tekshiruvining obyektini bo‘lishi mumkin emasligini mustahkamlab qo‘yish taklif qilingan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini takomillashtirish**” deb nomlanib, u xorijiy davlatlarda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazorati, Senatning nazorat faoliyati ta‘sirchanligini oshirishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning huquqiy asoslarini joriy qilish istiqbollari, Oliy Majlis Senatining parlament nazorati funksiyasini amalga oshirish mexanizmlari va samaradorligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari tahliliga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya ishida xorijiy davlatlar (Germaniya, Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Vengriya, Yaponiya, Niderlandiya Qirolligi, MDH davlatlari) parlamentlarining yuqori palatasi tomonidan o‘tkaziladigan parlament nazorati shakllari, ularning o‘ziga xosligi tahlil qilingan.

O‘rganishlar asosida xorijiy davlatlarda parlament tomonidan ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini o‘rnatish o‘zining xilma-xil yondashuvga ega

---

<sup>1</sup> <https://senat.uz/controlactivity/category/qonun-hujjatlarining-ijrosini-organish>

ekanligi bilan ajralib turishi va ushbu holat ko‘pincha, har bir davlatning tarixiy va huquqiy rivojlanish tendensiyalari, davlat boshqaruvining o‘ziga xosligi bilan chambarchas bog‘liqdir, degan xulosa kelib chiqqan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilishda belgilangan vazifalar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. “Elektron parlament” loyihasi doirasida senatorlarning hududlardagi saylovchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borishi, hududda aholini qiynayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etishi jarayonini raqamlashtirish;

2. Parlamentning hududlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, jumladan, masofaviy ishlash, shu jumladan, parlament tomonidan respublika bo‘yicha murojaatlar bilan ishlash holati nazoratga olinishi va hududiy ijro organlari rahbarlari hisobotini eshitish hamda uning natijasiga muvofiq ularga nisbatan ta’sirchan choralar ko‘rish amaliyotini joriy etish;

3. Oliy Majlis palatalari rasmiy veb-saytlarida parlament nazorati tadbirlarining yakunlari bo‘yicha qabul qilingan qarorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

